



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

“Chorgoh”, “Bayot”, singari xalq ashulalari alohida o’ziga xos uslub bilan ijro etiladi. Men o’zbek kuy va ashulalarini, maqomlarini sevimli hofizlarimiz va ustoz sozandalarimiz Mulla To’ychi Toshmuhammedov, Xoji Abdulaziz, Muhiddin Qori Yoqubov, Domla Halim Ibodov, Yusufjon Qiziq, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Madrahim She’roziydan o’rgandim, - deydi Halima Nosirova. San’atkor tushunchasida qo’shiq insonning mehnatida, hayotida, taqdirida doimiy yo’ldoshidir. Xalqning sevimli san’atkori Halima Nosirova katta Farg’ona, Toshkent, Chirchiq kanallari, Kattaqo’rg’on suv ombori, Farxod GES qurilishlarida. Mirzacho’l, Qarshi, Jizzax, cho’llarini o’zlashtirishda, dahshatli urush yillarida xalq ruhini ko’tarishda o’z san’ati bilan faol qatnashdi. Halima Nosirova “O’zbekfilm” kinostudiyasida suratga olingan “Asal”, “Frontga sovg’a”, “Maftuningman”, filmlarida obrazlar yaratdi va kino sohasiga ham hissa qo’shdi. Halima Nosirovaning yorqin san’ati va iste’dodidan ta’sirlangan bir qancha xorijiy tanqidchilar uning san’atiga yuksak baho berganlar. Suriyada chiqadigan “Lison ash shaab” va Hindistonda bosiladigan “Steystmen” gazetalari o’zbek qo’shiqchisini nihoyatda yoqimli va jozibador, dillarni rom qiluvchi ovozi haqida 1956 yilda samimiy satrlarni yozgan. Uning bulbul sifat ovozi o’zbek san’atkori timsolida Hindiston, Birma, Livan, Misr, Eron, Xitoy, Kanada kabi o’nlab mamlakatlarda yoyilgan. Halima Nosirova hayotligidayoq ikki ajoyib narsasi bilan o’ziga haykal o’rnatdi. Biri chinakam xalqchil san’ati, ikkinchisi shogirdlari, izdoshlari bilan ulug’ baxtga erishganligidir. Uning san’atdagi xizmatlari munosib baholangan bo’lib, “O’zbekiston xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo’ldi. Mustaqillik sharofati bilan “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini ko’kragiga taqish baxtiga muyassar bo’ldi. O’zbek san’atining ulug’ namoyandasi, betakror ovoz sohibasi Halima Nosirova 90 yosh umr ko’rib 2002 - yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Shashmaqom saboqlari. / Maqola va ma’ruzalarning 1-to’plami. – T., 2005. – 136 b.
2. Nurullayev F.G. “Bolalarning musiqiy ta’limi” o’quv qo’llanma. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021-yil.
3. To’rayev F. “Shashmaqomxon ustoz”- Buxoro shashmaqomi: Tarixiy-nazariy va amaliy masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. BuxDU, Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil.
4. Shashmaqom saboqlari. / Maqola va ma’ruzalarning 2-to’plami. – T., 2005. – 224 b.
5. Matyoqubov O. Maqomot. – T.: Musiqa nashriyoti, 2004 y.

MUMTOZ MUSIQAMIZ O’TMISHI VA BUGUNIGA BIR NAZAR

S.A. RASHIDOV,

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek mumtoz musiqasining o’tmishi, bu sohaning rivojiga hissa qo’shgan olimlar, mumtoz musiqaning buguni haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: o’zbek mumtoz musiqasi, madaniyat, maqom, tadqiqot, estetika.

Barchamizga ayonki, madaniyat, xususan, musiqa dunyosi juda keng qamrovli va barchaga teng daxldor ekanligi bilan boshqa sohalardan tubdan farq qiladi. Zero,

musiqa dunyosi insoniyatning hayoti, yashash tarzi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasini mujassam etuvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Shuning uchun musiqa o'zining badiiy va estetik imkoniyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi. Dunyodagi har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'analarga egadir. Shular qatorida o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'analarga egadir. Keling, shu o'rinda o'zbek musiqasi tarixi, jumladan mumtoz musiqamiz o'tmishi va kelejagi xususida mulohaza yuritamiz. Xo'sh, mumtoz musiqamiz qanday tarixiy bosqichlardan o'tib, bugungi shaklini saqlagan va bunda kimlarning hissi ko'proq?

O'zbek mumtoz musiqasini to'plash, yozib olish, ilmiy o'rganish va targ'ib etish XX asrda taraqqiy etidi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, aynan shu davrda V.Uspenskiy, Y.Romanovskaya, Yunus Rajabiy, M.Yusupov, I.Rajabiylarning mashaqqatli mehnati bilan o'zbek mumtoz musiqasi namunalari magnit tasmlarga yozib olish, hujjatlashtirish, nota yozuviga muhrlash, ilmiy o'rganib, tadqiqotlar o'tkazilganligi fikrimizning isbotidir. O'zbek an'anaviy musiqasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan mumtoz musiqa uslubi doirasida xalq musiqasining eng qadimiy davrlarga mansub kuy-ohang va usul namunalari ham o'z aksini topgan bo'lib, ular ikki xil bo'ladi: xalq og'zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar hamda bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar. "Tanavor", "Ey nozanin", "Oydek to'libdur", "Farzoni", "Ul parivash" singari xalq ashulalari nafaqat hofizlar, balki ziyolilar, hunarmandlar va boshqa kasb egalari, shuningdek, xotin-qizlar tomonidan ham ijro etib kelingan.¹

Mumtoz musiqaning eng yirik shakli maqomlardir. Maqomlar O'zbekistonnirig uch vohasida mavjud bo'lib, Buxoroda "Shashmaqom", Xorazmda "Xorazm maqomlari", Farg'ona vodiysida "Farg'ona Tashkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. Bundan tashqari, maqomlar yoilarida yaratilgan, shaklan va ijroviy xususiyatlari doirasi maqomlarga xos bo'lgan "Suvora"lar, Katta ashula, Sumay maqom yo'llari, dutor maqomlari hamda cholg'u yo'llari mavjuddir. Xo'sh, bugungi kunda o'zbek mumtoz qo'shiqlari, maqomlariga e'tibor qanday? Bugungi yosh avlod ularni eshitadimi? Afsuski, o'sib kelayotgan yosh avlod, milliy an'anaviy ashulalar va maqomlarni deyarli eshitmaydi. Ularning ong-u shuurini yengil-yelpi qo'shiqlar va musiqalarni eshitish, kuylash avj olgani hech birimizga sir emas. Bu esa judayam achinarli holat. Ajdodlarimizdan me'ros qolgan milliy mumtoz qo'shiqlarimiz, maqom va Shashmaqomlarni nafaqat ijro etish balkim tinglash ham bir muncha mushkulroqdir. Shuni anglagan holda mumtoz va maqom musiqasi yoshlarni milliy ruhda shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu borada mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi P-3391-son qaroriga binoan maqom sanatini rivojlantirishda ko'plab chora tadbirlar o'tkazilganligi, Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, milliy maqom maktablari, Yunus Rajabiy nomidagi maqom institut tashkil etilgani va sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim. O'zbek milliy maqom san'atini keng targ'ib

qilishda tuzilgan rejalar, yaratilayotgan imkoniyatlar o'z natijasini beradi degan umiddamiz. Maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan maktablar an'alarini, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash kabi dolzarb vazifalarni bajarish maqsadida O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilganligi quvonarli hol, albatta. Chunki, o'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkab-umukammalligi va beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi muhirlangan. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod ongiga uning buyukligi, ota-bobolarimizdan meros ekanligini singdirish ham bizning zimmamizga ulkan mas'uliyatni yuklaydi⁷¹.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda o'zbek xalqining madaniy boyligi hisoblangan va albatta, mumtoz musiqamizning asosini tashkil etgan maqomlarimizni o'z holicha kelgusi avlodga yetkazib berish, uning ruhiyatimizga ta'sirini namoyon etish barchamizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Yosh avlod ongida mumtoz musiqalarimizning badiiy-estetik zavqini singdirish va tafakkurini shakllantirish aynan biz musiqa sohasi vakillarining burchi ekanligini unutmagan holda bu borada yangicha g'oyalar ishlab chiqishimiz lozim. Ana shundagina mumtoz musiqamiz buguni va kelajagi porloq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qaroridan.
2. Mannopov S. (2004). O'zbek xalq musiqasi madaniyati. Toshkent., "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
3. Ismoilova M. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. Toshkent; 2000-yil.
4. Ro'ziyeva M. Yosh xonandalarning kamoloti. Toshkent, 2003-yil.

DUTOR IJROCHILIGIDA "USTOZ – SHOGIRD" AN'ANASI

G.HASANOVA,

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti,

Ilmiy rahbar: G'.M.XUDOYEV,

O'zDSMI professori v.b., san'atshunoslik fanlari falsafa doktori.

Annotatsiya. Mazkur maqolada an'anaviy dutor ijrochiligida "Ustoz-shogird" an'analari vositasida an'anaviy dutor sozini o'zlashtirishning o'ziga xos uslublari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, dutorchi sozanda ustozlarning ijodiy uslublarni o'rganishga doir qator metodlar atroflicha tahliliy qiyoslanadi

Kalit so'zlar: dutor, zarb, soz, cholg'u, ohang, an'ana, musiqa.

Xalqimizning madaniy hayoti sozandalikka, jumladan dutor chalishga o'rgatish va o'rganish qadim qadimdan rasm bo'lgan.

⁷¹ 1.M.Ismoilova. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. Toshkent; 2000-yil, 21-bet.